

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL



Avgust №8, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vilniaus Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 80-sahifa.
2026-yil, avgust.



MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

ULUG'BEK NURULLAYEV

Tomorqa xo'jaliklari faoliyatidan olingan daromadga noqishloq xo'jaligi faoliyati ta'sirini iqtisodiy baholash.....8

RO'ZMAMATOV ABBOS TOLIBJON O'G'LI

O'zbekistonda chakana savdo tarmog'ining tarkibiy o'zgarishlari va savdo xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishlari.....17

АЙТУРАТОВА УЛБИКЕ ЖАЛГАСОВНА

Развитие методических подходов к комплексной оценке эффективности привлечения финансирования акционерными обществами через рынок капитала.....26

BAXRONOVA NILUFAR SUNNAT QIZI

Raqamli transformatsiya va yashil iqtisodiyot integratsiyasining innovatsion iqtisodiy o'sishga ta'sir mexanizmlari.....36

KARAMATOVA NOIBA HUSNITDINOVNA

Korxonada ichki nazorat va audit tizimini takomillashtirish yo'nalishlari.....44

VEI ZHIBO

Madaniy meros turizmida raqamli kommunikatsiya, jamoatchilik ishtiroki va inklyuziv o'sish – Samarqand misolida.....53

ISMIGUL ABDULLAYEVA

Improving data management systems of small and medium enterprises through cloud technologies in the digital economy.....65

ABDURAYIMOV KAMOLIDDIN XURRAM O'G'LI

Surxondaryo viloyatida qishloq xo'jaligining amaldagi iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.....70

KABILOVA SHAHNOZA JURAYEVNA, XALIMOV JAVLON

SHAXRIYOROVICH
Iste'molchilarga xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik biznesni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari: hududiy differensiatsiya tahlili (Qashqadaryo viloyati misolida).....80





ISTE'MOLCHILARGA XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDAGI KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI: HUDUDIY DIFFERENSIATSIYA TAHLILI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

KABILOVA SHAHNOZA JURAYEVNA

Qarshi davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: shshahnoza427@gmail.com

Ilmiy rahbar: Xalimov Javlon Shaxriyorovich

QarDU dotsenti, Iqtisodiyot fanlari doktori

Annotatsiya. Maqolada iste'molchilarga xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yurituvchi kichik tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari O'zbekiston Milliy statistika qo'mitasining 2010-2025-yillar bo'yicha rasmiy ma'lumotlari asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda tarmoq tarkibi tahlili, hududlararo qiyosiy tahlil, Jini koeffitsienti va variatsiya koeffitsienti orqali hududiy notekislikni o'lchash usullari qo'llanilgan. Tahlil natijasida Qashqadaryo viloyatida kichik biznes tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2015-2025-yillarda 13,6 barobar o'sgani, biroq bir band bo'lgan ishchiga to'g'ri keladigan xizmat hajmi bo'yicha viloyat 14 ta hudud orasida 11-o'rinni egallashi aniqlangan. Kichik biznes tarkibida xizmatlar ulushi 27,1 foizni tashkil etib, respublika o'rtacha ko'rsatkichi (28,3%) darajasidan past. Tadqiqot natijasida hududiy tabaqalashtirishga asoslangan uch bosqichli tashkiliy-iqtisodiy model taklif etilgan.

Kalit so'zlar: kichik tadbirkorlik, iste'molchilarga xizmat ko'rsatish, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, hududiy differentsiatsiya, Jini koeffitsienti, mehnat unumdorligi, Qashqadaryo viloyati.

Аннотация. В статье на основе официальных статистических данных Национального комитета по статистике Республики Узбекистан за 2010-2025 годы проведён анализ организационно-экономических механизмов развития субъектов малого предпринимательства, функционирующих в сфере оказания услуг населению. В исследовании применены методы структурного анализа, межрегионального сравнительного анализа, а также инструменты оценки территориальной дифференциации с использованием коэффициента Джини и коэффициента вариации. Результаты исследования показывают, что в Кашкадарьинской области объём услуг, оказанных субъектами малого предпринимательства, в 2015-2025 годах увеличился в 13,6 раза. Вместе с тем по объёму услуг, приходящемуся на одного занятого работника, регион занимает 11-е место среди 14 административно-территориальных единиц Республики Узбекистан, что свидетельствует о наличии резервов повышения производительности труда. Установлено, что доля сферы услуг в структуре малого предпринимательства области составляет 27,1 %, что ниже среднереспубликанского уровня (28,3 %). На основе полученных результатов разработана трёхуровневая организационно-экономическая модель развития сферы услуг, основанная на принципах территориальной дифференциации и ориентированная на повышение эффективности деятельности субъектов малого предпринимательства и сокращение межрегиональных диспропорций.

Ключевые слова: малое предпринимательство, сфера услуг населению, организационно-экономический механизм, территориальная дифференциация, коэффициент Джини, коэффициент вариации, производительность труда, Кашкадарьинская область.

Abstract. This study analyzes the organizational and economic mechanisms underpinning the development of small business entities operating in the personal services sector, based on the official statistical data of the National Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics for the period 2010–2025. The research employs structural analysis, interregional comparative analysis, and territorial differentiation assessment using the Gini coefficient and the coefficient of variation. The findings indicate that the volume of services provided by small business entities in the Kashkadarya region increased by 13.6 times during 2015–2025. However, in terms of the volume of services per employed worker, the region ranks 11th among the 14 administrative-territorial units of the Republic





of Uzbekistan, indicating considerable potential for improving labor productivity. The study also reveals that the share of the service sector in the structure of small business in the region accounts for 27.1%, which is below the national average of 28.3%. Based on the empirical findings, a three-level organizational and economic model for the development of the service sector is proposed. The model is grounded in the principles of territorial differentiation and is aimed at improving the operational efficiency of small business entities while reducing interregional disparities.

Keywords: small business; personal services sector; organizational and economic mechanism; territorial differentiation; Gini coefficient; coefficient of variation; labor productivity; Kashkadarya region.

KIRISH

Iste'molchilarga xizmat ko'rsatish sohasi zamonaviy iqtisodiyotda aholi turmush sifatini belgilovchi, shuningdek mehnat resurslarini bandlik bilan ta'minlovchi asosiy tarmoqlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida bu sohaning asosiy tashuvchisi kichik tadbirkorlik subyektlari bo'lib, ular jami bandlikning 74,5 foizini (2025-yil) ta'minlab kelmoqda. Rasmiy statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 2015-2025-yillar davomida respublikada kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 47 269,6 mlrd so'mdan 595 090,5 mlrd so'mgacha, ya'ni 12,6 barobar o'sgan. Ushbu jadal o'sish fonida hududlararo tafovutlar masalasi alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi. Qashqadaryo viloyati aholi soni va mehnat resurslari bo'yicha respublikada yetakchi hududlardan biri hisoblanadi: 2024-yilda viloyatda kichik tadbirkorlik subyektlarida 1 020,1 ming kishi band bo'lgan, bu Farg'ona (1 258,3 ming) va Samarqand (1 236,1 ming) viloyatlaridan keyingi uchinchi ko'rsatkichdir. Shu bilan birga, ushbu yirik mehnat salohiyati xizmat ko'rsatish sohasida yetarlicha samarali o'zlashtirilmayotgani kuzatilmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik korxonalar samaradorligi ko'proq xizmat sifati prizmasidan tahlil qilinadi. A.Parasuraman, V.Zeithaml va L.Berry tomonidan ishlab chiqilgan SERVQUAL modeli xizmat sifatini besh o'lchov (ishonchlilik, javobgarlik, kafolat, empatiya, moddiy muhit) orqali baholashni taklif etadi. M. Porterning klaster nazariyasida esa hududiy konsentratsiya kichik subyektlarning raqobatbardoshligini oshiruvchi asosiy omil sifatida qaraladi. D.Storey va F. Greene ishlarida kichik biznesning o'sishini cheklovchi asosiy omil sifatida moliyaviy resurslar emas, balki boshqaruv kompetensiyalari hamda bozorga kirish imkoniyatlari tanqisligi ko'rsatilgan. Bu yondashuv qo'llab-quvvatlash siyosatida kreditlashdan institutsional yordamga o'tish zarurligini asoslaydi. (M.Lapusta, A.Blinov) tashkiliy-iqtisodiy mexanizm tarkibiga tashkiliy-huquqiy, moliyaviy-kredit, soliq, infratuzilma va axborot ta'minoti kabi ketma-ket bosqichlar ham kiritiladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning umumiy masalalari keng yoritilgan. Biroq aynan iste'molchilarga xizmat ko'rsatish tarmog'ining hududiy xususiyatlari, xususan agrar yo'naltirilgan hududlarda sohaning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi rasmiy statistik ma'lumotlarning uzoq muddatli qatorlari asosida yetarlicha tadqiq etilmagan.





TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot obyekti - Qashqadaryo viloyatida iste'molchilarga xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yurituvchi kichik tadbirkorlik subyektlari.

Ma'lumot manbasi. Tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy ochiq ma'lumotlar bazasidan (stat.uz) olingan quyidagi indikatorlar bo'yicha 2010-2025-yillar dinamik qatorlariga asoslanadi:

– kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmi (mlrd so'm);

– chakana savdo aylanmasi hajmi (mlrd so'm);

– ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi (mlrd so'm);

– qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari hajmi (mlrd so'm);

– qurilish ishlari hajmi (mlrd so'm);

– kichik tadbirkorlik subyektlarida band bo'lganlar soni (ming kishi);

– kichik tadbirkorlik subyektlarining YalMdagi va jami bandlikdagi ulushi (%);

– yo'lovchi va yuk tashish, yo'lovchi va yuk aylanmasi hajmlari.

Tahlil usullari:

1. Tuzilmaviy tahlil - kichik tadbirkorlik faoliyatining tarmoqlar kesimidagi ulushlari hisoblab chiqilgan va viloyat ko'rsatkichi respublika hamda qiyosiy hududlar (Buxoro, Samarqand) bilan taqqoslangan.

2. Dinamik tahlil – 2015-2025-yillar bo'yicha o'sish sur'atlari, shuningdek, zanjirli o'sish indeksleri hisoblangan.

3. Mehnat samaradorligi tahlili - bir band bo'lgan ishchiga to'g'ri keladigan xizmat hajmi (mln so'm/kishi) ko'rsatkichi hisoblab, 14 ta hudud bo'yicha reyting tuzilgan.

4. Hududiy tafovutni o'lchash - Jini va variatsiya koeffitsienti (CV) orqali hududlararo tafovut miqdoriy baholangan. Jini koeffitsienti quyidagi formula bo'yicha hisoblangan:

$$G = \Sigma (2i - n - 1) \cdot x_i / (n \cdot \Sigma x_i) \quad (1)$$

bu yerda, x_i - i-hududning bir band bo'lgan ishchiga to'g'ri keladigan xizmat hajmi (o'sish tartibida saralangan); n - hududlar soni. Koeffitsient qiymati 0 ga yaqinlashishi to'liq tenglikni, 1 ga yaqinlashishi maksimal notekislikni bildiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qashqadaryo viloyatida kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2015-yildagi 2 981,6 mlrd so'mdan 2025-yilda 40 582,1 mlrd so'mga yetib, 13,6 barobar o'sgan. Bu respublika bo'yicha o'rtacha o'sish sur'atidan (12,6 barobar) bir oz yuqori.

1-jadval ma'lumotlari 2022-2023-yillarda xizmatlar hajmining keskin (143,9%) o'sishini ko'rsatadi, bu asosan statistik metodologiya qayta ko'rib chiqilishi bilan bog'liq. Metodologik uzilishdan keyingi barqaror davrda (2023-2025) yillik o'sish sur'ati 23-25 foiz atrofida saqlanmoqda.





1-jadval

Qashqadaryo viloyatida kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

Ko'rsatkich	2015	2020	2022	2024	2025
Xizmatlar hajmi, mlrd so'm	2 981,6	7 308,0	10 831,6	32 556,0	40 582,1
Chakana savdo, mlrd so'm	4 613,4	11 943,1	17 360,8	25 699,3	29 327,3
Sanoat, mlrd so'm	2 187,0	5 049,0	5 213,0	14 188,1	19 668,5
Qishloq xo'jaligi, mlrd so'm	9 271,1	24 231,2	32 817,5	42 735,0	47 491,1
Qurilish, mlrd so'm	1 322,3	4 274,3	5 664,9	11 368,7	12 464,2
Band bo'lganlar, ming kishi	910,0	914,1	943,8	1 020,1	–
YalMdagi ulushi, %	63,2	74,1	69,9	70,6	69,2

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Shuni ta'kidlash kerakki, kichik biznesning YalMdagi ulushi 2020-yildagi eng yuqori nuqta (74,1%)dan 2025-yilda 69,2 foizga tushgan. Bu yirik korxonalar va investitsiya loyihalarining nisbiy o'sishini aks ettiradi, shuningdek kichik biznes tarmog'ida nisbiy o'rin yo'qotish tendensiyasidan dalolat beradi. Tadqiqotning eng muhim natijalaridan biri kichik tadbirkorlik faoliyatining tarmoq tarkibidagi tuzilmaviy nomutanosiblikdir.

2-jadval

Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatining tarmoq tarkibi, % (2025-yil)

Tarmoq	Qashqadaryo	Respublika	Buxoro	Samarqand
Qishloq xo'jaligi	31,8	23,5	32,3	29,7
Xizmatlar	27,1	28,3	22,0	26,9
Chakana savdo	19,6	19,0	17,4	19,6
Sanoat	13,2	18,2	16,7	15,1
Qurilish	8,3	11,0	11,7	8,6

Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Qashqadaryo viloyatida kichik biznes faoliyatida qishloq xo'jaligi ulushi (31,8%) respublika o'rtacha ko'rsatkichidan (23,5%) 8,3 foiz punktga yuqori. Bu viloyat iqtisodiyotining agrar yo'nalganligini tasdiqlaydi.

Xizmatlar ulushi (27,1%) respublika darajasidan (28,3%) 1,2 foiz punktga past. 2015-yilda bu tafovut 3,1 foiz punktni tashkil etgan edi (14,6% ga qarshi 17,7%), ya'ni farq qisqargan, ammo to'liq bartaraf etilmagan.

Sanoat ulushi (13,2%) respublika ko'rsatkichidan (18,2%) sezilarli darajada past bo'lib, bu qo'shilgan qiymati yuqori tarmoqlarning kam rivojlanganini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, 2015-2025-yillarda viloyatda xizmatlar ulushi 14,6 foizdan 27,1 foizgacha, ya'ni 12,5 foiz punktga o'sgan. Bu ijobiy tuzilmaviy siljish, biroq u respublika o'rtacha intilish bilan parallel kechayotgani



(respublikada 17,7% dan 28,3% ga, 10,6 foiz punkt o'sish) viloyatda maxsus, tezlashtirilgan xizmat ko'rsatish siyosati amalga oshirilmayotganini bildiradi.

Absolyut ko'rsatkichlar viloyat salohiyatini adekvat baholamaydi, chunki ular aholi soni va mehnat resurslari hajmini hisobga olmaydi. Shu sababli tadqiqotda bir band bo'lgan ishchiga to'g'ri keladigan xizmat hajmi ko'rsatkichi hisoblangan.

3-jadval

Kichik tadbirkorlik subyektlarida bir band bo'lgan ishchiga to'g'ri keladigan xizmat hajmi, mln so'm (2025-yil)

№	Hudud	Xizmatlar hajmi, mlrd so'm	Band bo'lganlar, ming kishi	1 kishiga, mln so'm
1	Toshkent shahri	162 612,1	682,8	238,2
2	Navoiy viloyati	14 918,4	226,1	66,0
3	Toshkent viloyati	52 427,6	889,5	58,9
4	Buxoro viloyati	30 280,3	601,5	50,3
5	Qoraqalpog'iston Resp.	26 040,2	563,9	46,2
6	Namangan viloyati	42 242,9	949,5	44,5
7	Xorazm viloyati	27 110,9	621,0	43,7
8	Farg'ona viloyati	54 265,8	1 258,3	43,1
9	Jizzax viloyati	17 932,2	434,9	41,2
10	Samarqand viloyati	50 911,8	1 236,1	41,2
11	Qashqadaryo viloyati	40 582,1	1 020,1	39,8
12	Sirdaryo viloyati	9 802,5	258,3	38,0
13	Andijon viloyati	39 288,4	1 094,4	35,9
14	Surxondaryo viloyati	26 675,3	792,3	33,7

Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Qashqadaryo viloyati xizmatlar hajmining absolyut ko'rsatkichi bo'yicha 14 ta hudud orasida 6-o'rinni egallasa-da, bir band bo'lgan ishchiga to'g'ri keladigan xizmat hajmi bo'yicha 11-o'ringa tushib qoladi (39,8 mln so'm). Bu ko'rsatkich Buxoro viloyatidan 1,26 barobar, Toshkent shahridan esa 6 barobar past. Boshqacha aytganda, viloyatning nisbatan yaxshi ko'rinadigan absolyut ko'rsatkichlari faoliyat samaradorligi hisobiga emas, balki katta mehnat resursi hisobiga shakllanmoqda. Iste'molchilarga xizmat ko'rsatishning muhim tarkibiy qismi bo'lgan transport xizmatlari bo'yicha viloyat ko'rsatkichlari quyidagicha:

4-jadval

Qashqadaryo viloyatining transport xizmatlaridagi ulushi (2025-yil)

Ko'rsatkich	Viloyat qiymati	Respublikadagi ulushi, %	Baho
Yo'lovchi aylanmasi, mln pass.-km	10 446,1	7,8	Nisbiy ustunlik
Yuk aylanmasi, mln tonna-km	1 366,5	7,2	O'rtachadan yuqori
Yuk tashish, mln tonna	46,1	6,6	O'rtacha
Yo'lovchi tashish, mln yo'lovchi	329,6	5,4	Past



Tahlil qiziqarli nomutanosiblikni ochadi: viloyat yo'lovchi aylanmasi bo'yicha respublikada 7,8 foiz ulushga ega bo'lsa-da, yo'lovchi tashish soni bo'yicha atigi 5,4 foizni tashkil etadi. Bu tashishlarning o'rtacha masofasi uzoq ekanini, ya'ni viloyatda shahar ichi va tuman ichi qisqa masofali yo'lovchi xizmatlari sohasi kam rivojlanganini bildiradi. Aynan shu soha iste'molchilarga xizmat ko'rsatishning eng ommaviy va kichik biznes uchun eng qulay yo'nalishidir. Tadqiqot natijalari D. Storey va F. Greenening kichik biznes o'sishida moliyaviy resurslar hal qiluvchi omil emasligi haqidagi xulosasini empirik jihatdan qo'llab-quvvatlaydi. Qashqadaryo viloyati mehnat resurslari (1 020,1 ming band kishi) va umumiy iqtisodiy faollik bo'yicha yetakchi hududlar qatorida bo'lsa-da, xizmat ko'rsatish samaradorligi bo'yicha o'rtachadan past pozitsiyani egallaydi. Demak, muammo resurslar hajmida emas, ularni o'zlashtirish mexanizmida. Klaster yondashuvi nuqtayi nazaridan (M. Porter) viloyatda xizmat ko'rsatish sohasida haqiqiy klaster shakllanmagan. Buni tarmoq tarkibidagi qishloq xo'jaligining ustun ulushi (31,8%) va yuqori qo'shilgan qiymatli sanoat-xizmat segmentlarining zaifligi (sanoat - 13,2%, respublikada 18,2%) tasdiqlaydi. Klaster shakllanishi uchun zarur bo'lgan gorizontaal kooperatsiya va tarmoqlararo bog'lanishlar yo'q. Ma'lumotlar viloyat iqtisodiyotining agrar-savdo modeliga qotib qolganini ko'rsatadi. 2015-2025-yillarda qishloq xo'jaligi ulushi 45,5 foizdan 31,8 foizga tushgan bo'lsa-da, respublika o'rtacha darajasi (23,5%) bilan tafovut hatto kengaygan: 2015-yilda farq 7,6 foiz punkt bo'lgan bo'lsa, 2025-yilda 8,3 foiz punktni tashkil etdi. Bu diversifikatsiya jarayonining viloyatda respublika o'rtachasidan sekinroq kechayotganini bildiradi. Natijalar viloyat hokimligining kichik biznesni qo'llab-quvvatlash dasturlarini shakllantirishda "bir o'lchov hammaga" (one-size-fits-all) yondashuvidan voz kechish va samaradorlikka yo'naltirilgan (per-capita, per-employee) baholash mezonlarini joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

XULOSA

Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2015-2025-yillarda 13,6 barobar (2 981,6 mlrd so'mdan 40 582,1 mlrd so'mgacha) o'sgan. Absolyut ko'rsatkichlar bo'yicha viloyat respublikada 6-o'rinni egallaydi. Biroq mehnat samaradorligi kesimida holat sezilarli darajada boshqacha: bir band bo'lgan ishchiga to'g'ri keladigan xizmat hajmi bo'yicha viloyat 14 ta hudud orasida atigi 11-o'rinni egallaydi (39,8 mln so'm). Viloyatning nisbatan yuqori absolyut ko'rsatkichlari samaradorlik emas, katta mehnat resursi hisobiga shakllanmoqda. Kichik biznes faoliyatining tarmoq tarkibida qishloq xo'jaligi ustunligi saqlanib qolmoqda (31,8%, respublikada 23,5%), xizmatlar ulushi esa respublika darajasidan past (27,1% ga qarshi 28,3%). Bu tuzilmaviy qulflanish hodisasidan dalolat beradi. Jini koeffitsienti tahlili viloyatlar o'rtasida konvergensiya jarayoni kechayotganini ko'rsatdi (Toshkent shahrisiz Jini 2015-yildagi 0,153 dan 2025-yilda 0,102 gacha kamaydi). Biroq Qashqadaryo viloyati bu konvergensiya doirasida o'rtachadan past pozitsiyani egallaydi. Transport xizmatlari tahlili viloyatda qisqa masofali





(shahar ichi, tuman ichi) yo'lovchi tashish tarmog'ining zaif rivojlanganini aniqladi - aynan bu tarmoq kichik biznes uchun eng qulay va iste'molchilar uchun eng zarur yo'nalishdir. Taklif etilgan uch bosqichli tashkiliy-iqtisodiy model tuzilmaviy diversifikatsiya, mehnat unumdorligini oshirish va klasterlashtirish yo'nalishlarini qamrab olib, viloyatni 2031-yilga qadar mehnat samaradorligi bo'yicha 6-7-o'ringa ko'tarish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. 2012-yil, 2-may O'RQ-328.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni 18.07.2012. № PF-4455.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son.
5. Parasuraman A., Zeithaml V.A., Berry L.L. SERVQUAL: A Multiple-Item Scale for Measuring Consumer Perceptions of Service Quality // Journal of Retailing. – 1988. - Vol. 64, No. 1. - P. 12-40.
6. Porter M.E. Clusters and the New Economics of Competition // Harvard Business Review. – 1998. - Vol. 76, No. 6. - P. 77-90.
7. Лапуста М.Г. Предпринимательство: учебник. – М.: ИНФРА-М, 2016. - 384 с.
8. Кабилова Ш. Организационно-управленческий механизм развития сферы услуг в малом бизнесе (на примере Кашкадарьинской области). // Moliyaviy texnologiyalar ilmiy jurnali. Toshkent, 2026. №4, 38-42 betlar.
9. Qobilova, Sh. Aholining turmush farovonligini yaxshilashning ijtimoiy-iqtisodiy masalalari. // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, (11-12). 2023.
10. Qobilova, Sh. Iqtisodiyotda kambag'allik darajasini qisqartirishda moliya bozori instrumentlaridan foydalanish imkoniyatlari. // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 1(4). 2024.
11. Qobilova Sh.J. O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirishning huquqiy asoslari va iqtisodiy ahamiyati // «Yangi O'zbekistonda moliyaviy bozorlar va xorijiy investorlar» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Qarshi: 2026-yil 14-may. 152-157 betlar.
12. Qobilova Sh.J. Kreativ iqtisodiyot va uning mintaq iqtisodiyotidagi o'rni hamda ahamiyatini tahlil qilish // Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. - Qarshi, 2026-yil 23-aprel. 212-217 betlar.
13. <https://stat.uz> - O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy veb-sayti
14. qashstat.uz - Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti.



Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**